Mazkur jarayon ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillariga tayangan holda, ta'limni boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish hamda ta'lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda professional ta'lim muassasalarini boshqarishda strategik yondashuvni qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi. Strategiyani ishlab chiqish va uni amaliyotga samarali tatbiq etish professional ta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetensiyasi va boshqaruv madaniyatiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri hisoblanadi.

Professional ta'lim muassasalari rahbarlarining funksional vazifalari orasida ta'lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan strategiyani ishlab chiqish, uni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini belgilash hamda strategik maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan taktik chora-tadbirlarni to'g'ri tashkil etish muhim o'rin tutadi. Mukammal ishlab chiqilgan strategiya ta'lim muassasasining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda ta'lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, strategiyani ishlab chiqish va uni amaliyotga izchil tatbiq etish samarali boshqaruv tizimining muhim sharti hisoblanadi.

Pedagogik amaliyotda uzoq vaqt davomida "strategiya" tushunchasiga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan bo'lsa-da, XX asrning 90-yillaridan boshlab ushbu tushuncha psixologiya va falsafa fanlarida keng qo'llanila boshladi. Xususan, strategiya shaxsning o'zini o'zi anglash, o'z faoliyatini rejalashtirish, uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, hayotiy pozitsiyasini aniqlash hamda istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini belgilash jarayonlarida muhim vosita sifatida qo'llanildi. Pedagogika fanida esa strategiya tushunchasining nazariy asoslari, mazmuni va mohiyati yetarli darajada o'rganilmagan. Vatanimiz olimlari tomonidan olib borilgan pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik strategiya tushunchasining mazmuni, maqsadi va ilmiy asoslari yetarli darajada tizimli ravishda o'rganilmagan hamda ushbu tushunchaning pedagogik jarayondagi o'rni to'liq yoritilmagan.

Shu bois, mazkur tadqiqotda "pedagogik strategiya" tushunchasining mazmunini ilmiy asosda o'rganish, uning nazariy va amaliy jihatlarini aniqlash hamda professional ta'lim tizimida qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish muhim vazifa sifatida belgilandi. Ushbu jarayonda strategiya tushunchasining mazmunini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy manbalarda strategiya tushunchasi zarur natijaga erishish uchun nostandart sharoitlarda ishlab chiqiladigan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan harakatlar tizimi sifatida talqin etiladi [2]. Mazkur yondashuv strategiyaning asosiy mazmunini, ya'ni uzoq muddatli maqsadga erishishga qaratilgan tizimli, izchil va ilmiy asoslangan faoliyat modeli ekanligini ifodalaydi.

Strategiya tushunchasi ilmiy adabiyotlarda istiqbolli rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan tizimli va uzoq muddatli boshqaruv kategoriyasi sifatida talqin etiladi. Xususan, strategiya batafsil ishlab chiqilgan harakatlarning izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi orqali istiqbolli maqsadlarga erishish yoki rejalashtirilgan natijalarga yetishishni ta'minlovchi uzoq muddatli reja sifatida ta'riflanadi [3]. Mazkur yondashuv strategiyani asosiy mazmunini, ya'ni maqsadga erishishga yo'naltirilgan aniq rejalashtirilgan, tizimli va izchil faoliyat modeli ekanligini ifodalaydi. Zamonaviy boshqaruv nazariyasi va amaliyotida strategiya tushunchasi keng qo'llanilib, u tashkilot, korxona yoki muassasa faoliyatini samarali tashkil etish, istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini oldindan belgilash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish hamda boshqaruv jarayonini tizimli ravishda tashkil etishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, strategiya faoliyatni oldindan rejalashtirish, ustuvor vazifalarni aniqlash, maqsadga erishish mexanizmlarini belgilash hamda kutilayotgan natijalarni prognoz qilish va nazorat qilish imkonini beruvchi boshqaruv vositasi sifatida ham keng qo'llanilmoqda [1]. Ushbu jihatdan strategiya nafaqat uzoq muddatli rivojlanish rejasini, balki boshqaruvning konseptual asoslarini ham ifodalaydi. Strategiya, shuningdek, maqsadga erishish jarayonini samarali boshqarish san'ati sifatida ham tavsiflanadi. U tashkilot faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish, tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda ushbu qarorlarni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Shu ma'noda strategiya tashkilot yoki muassasa faoliyatining rivojlanish istiqbolini belgilovchi, boshqaruv jarayonining uzluksizligi va izchilligini ta'minlovchi hamda maqsadga erishishning ilmiy asoslangan modelini ifodalovchi muhim boshqaruv kategoriyasi hisoblanadi.

Umummenejment nazariyasida strategiya tushunchasiga berilgan ilmiy tavsiflar va konseptual yondashuvlarga asoslanib, uni ta'lim muassasasini boshqarish jarayoni bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv strategiyani ta'lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan kompleks boshqaruv vositasi sifatida talqin etish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, strategiya, avvalo, ta'lim muassasasining oldiga qo'yilgan uzoq muddatli maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlovchi muhim boshqaruv vositasi hisoblanadi. Strategiya ta'lim muassasasining istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini belgilash, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tizimli boshqaruv modeli sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim muassasasini boshqarish nuqtai nazaridan strategiya birinchi navbatda yakuniy natijaga erishishni ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi. U ta'lim muassasasining barcha faoliyat yo'nalishlarini yagona maqsad sari yo'naltirish, pedagogik, tashkiliy, boshqaruv va innovatsion jarayonlarni o'zaro integratsiyalash hamda ularning izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, strategiya ta'lim muassasasining umumiy faoliyatini yaxlit tizim sifatida rivojlantirishga imkon berib, uning barcha tarkibiy qismlari, jumladan, o'quv jarayoni, pedagogik faoliyat, boshqaruv tizimi va moddiy-texnik bazasining o'zaro uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi.

Strategiya ta'lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanish istiqbolini belgilovchi keng qamrovli ish rejasi sifatida ham tavsiflanadi. U ta'lim muassasasining joriy va istiqbolli faoliyatini rejalashtirish, ustuvor vazifalarni aniqlash hamda ta'lim jarayonini tizimli ravishda tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, strategiya ta'lim muassasasining barcha ish

rejalarini yagona tizimga birlashtiruvchi, ularning o'zaro uyg'unligini ta'minlovchi muhim boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Bu esa ta'lim muassasasining rivojlanish jarayonida resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Strategiya, shuningdek, ta'lim muassasasining mavjud resurslarini oqilona taqsimlash, ularni samarali muvofiqlashtirish hamda qo'yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan uzoq muddatli harakatlarning umumlashgan modeli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jihatdan strategiya ta'lim muassasasining rivojlanish yo'nalishlarini belgilovchi, uning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlovchi hamda boshqaruv jarayonining izchilligini ta'minlovchi konseptual asos vazifasini bajaradi.

Strategiya innovatsion rivojlanishning muhim omili sifatida ham alohida ahamiyatga ega. U pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'lim sifatini takomillashtirish hamda boshqaruv faoliyatini modernizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish imkonini beradi. Shu bilan birga, strategiya ta'lim muassasasining istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asosda tahlil qilish, rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash hamda raqobat muhitida ustunlikka erishish uchun zarur bo'lgan konseptual yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Strategiya ta'lim muassasasining umumiy faoliyatini, jumladan, moliyaviy, tashkiliy va pedagogik jarayonlarini kompleks nazorat qilish, ularning samaradorligini baholash hamda rivojlanish istiqbollari belgilash imkonini beruvchi keng qamrovli boshqaruv tizimi sifatida ham tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan, strategiya ta'lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish hamda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv kategoriyasi hisoblanadi.

Ta'lim muassasasini samarali boshqarish ko'p jihatdan uning rahbari tomonidan ishlab chiqilgan strategiyaning ilmiy asoslanganligi, real sharoitlarga mosligi hamda uni amaliyotga izchil va samarali tatbiq etish darajasiga bog'liqdir. Strategiyani ishlab chiqish va uni amalga oshirish boshqaruv jarayonining o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan muhim bosqichlari hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim ta'lim muassasalari rahbarlari puxta ishlab chiqilgan, nazariy jihatdan asoslangan strategiyaga ega bo'lsalar-da, uni amaliy faoliyatga to'laqonli joriy etish uchun zarur bo'lgan tashkiliy, metodik va boshqaruv mexanizmlarini yetarli darajada qo'llay olmaydilar. Bunday holatlarda strategiya konseptual hujjat sifatida mavjud bo'lsa-da, uning amaliy samaradorligi past darajada qoladi. Buning asosiy sababi rahbar-xodimlarda strategiyani amalga oshirishga doir taktik bilim, amaliy ko'nikma va boshqaruv malakalarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi.

Boshqa holatlarda esa ayrim ta'lim muassasalari rahbarlari tomonidan ishlab chiqilgan strategiya nisbatan soddaroq yoki o'rtacha darajada bo'lishiga qaramasdan, uni amaliyotga izchil va samarali joriy etish orqali ijobiy natijalarga erishilmoqda. Ushbu holat strategiyani amalga oshirish jarayonida rahbarning boshqaruv kompetensiyasi, tashkiliy qobiliyati, mavjud resurslardan samarali foydalanish mahorati hamda jamoani strategik maqsadlarga yo'naltirish qobiliyati muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, strategiyani ishlab chiqishda ta'lim muassasasining ichki va tashqi muhitini, uning kuchli va zaif tomonlarini, mavjud imkoniyatlar va rivojlanishga tahdid soluvchi omillarni chuqur tahlil qilish zarur. Aks

holda, strategiya amaliyotdan uzilib qolgan, real sharoitlarga mos kelmaydigan hujjatga aylanishi mumkin.

Mazkur holatlar strategik boshqaruv kompetensiyasining ta'lim muassasasi rahbari faoliyatida muhim o'rin tutishini yana bir bor tasdiqlaydi. Strategik boshqaruvga doir kompetentlik rahbardan ta'lim muassasasining istiqbolli rivojlanish maqsadlarini aniq belgilash, ushbu maqsadlarni aniq boshqaruv vazifalariga aylantirish, ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda kutilayotgan natijalarni oldindan prognoz qilishni talab etadi. Shu bilan birga, strategik boshqaruv jarayonida barcha tarkibiy qismlarning o'zaro aloqadorligi, ya'ni strategik maqsadlar, vazifalar, resurslar, amalga oshirish mexanizmlari va kutilayotgan natijalar o'rtasidagi tizimli bog'liqlikni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa strategik boshqaruvni ta'lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi kompleks boshqaruv jarayoni sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Shuningdek, pedagogik strategiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning natijalari qisqa muddatda emas, balki uzoq muddatli istiqbolda namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish jarayonlaridan farqli ravishda, pedagogik strategiyaning samaradorligi darhol sezilmaydi, chunki ta'lim jarayoni murakkab, ko'p bosqichli va uzoq muddatli rivojlanish jarayonini o'z ichiga oladi. Pedagogik strategiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan boshqaruv subyektlarining strategik maqsadlarga yo'naltirilganligi, pedagogik jamoaning strategik vazifalarni anglab yetganligi, moddiy-texnik bazaning yetarli darajada ta'minlanganligi, shuningdek, vaqt va makon omillarining to'g'ri hisobga olinganligiga bog'liqdir. Shu sababli pedagogik strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida tizimli yondashuvni qo'llash, mavjud resurslarni samarali boshqarish hamda pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Professional ta'lim tizimida pedagogik strategiyaning mohiyatini aniqlash jarayoni uning nazariy asoslari, maqsadlari va amaliy vazifalarini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Pedagogik strategiya professional ta'lim tizimining istiqbolli rivojlanishini ta'minlash, o'quvchilarni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlash hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirishga qaratilgan kompleks pedagogik faoliyat modeli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik strategiyaning asosiy nazariy jihatlaridan biri o'quvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishning strategik maqsadini aniq belgilashdan iborat. Bu jarayon bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish hamda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda samarali kasbiy faoliyat yuritishlariga imkon yaratishga xizmat qiladi.

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni rivojlantirishning strategik maqsadi o'quvchilarning zamonaviy raqobat muhitida yosh mutaxassis sifatida barqaror faoliyat yurita olishlari, o'z kasbiy o'rnini topishlari hamda o'zlarida noyob kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirish orqali raqobatbardosh ustunliklarga ega bo'lishlarini ta'minlashga qaratilgan. Bu esa o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatini, kasbiy moslashuvchanligini hamda kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, pedagogik strategiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan taktik vazifalarni aniqlash va amalga oshirishdan iborat. Ushbu taktik vazifalar o'quvchilarning kasbiy kompetensiyasining barcha komponentlarini, jumladan, kasbiy bilim,

amaliy ko'nikma, malaka, kasbiy motivatsiya va kasbiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni izchil rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bunda pedagogik qo'llab-quvvatlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, innovatsion o'qitish metodlaridan foydalanish hamda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'lim amaliyotida turli xil pedagogik strategiyalar mavjud bo'lib, ularning har biri ta'lim muassasasining maqsad va vazifalariga, mavjud shart-sharoitlariga hamda strategik rivojlanish yo'nalishlariga mos ravishda qo'llaniladi. Shu sababli, pedagogik strategiyani amalga oshirish jarayonida tanlangan tarkibiy komponentlar, shakllar, usullar va vositalar strategik maqsadga erishish uchun yetarli darajada asoslangan bo'lishi lozim. Pedagogik strategiyani samaradorligi ko'p jihatdan uning ilmiy asoslanganligi, amaliyotga mosligi hamda ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini o'zaro uyg'unlashtira olish darajasiga bog'liqdir.

Professional ta'lim muassasasi rahbari zimmasiga pedagogik strategiyani ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish hamda ta'lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta'minlash kabi muhim vazifalar yuklatiladi. Ta'lim muassasasi rahbari strategik boshqaruv jarayonida turli xil murakkab va kutilmagan vaziyatlarga moslasha olish, mavjud muammolarni samarali hal etish hamda konstruktiv, muhofaza va destruktiv strategiyalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash kompetensiyasiga ega bo'lishi zarur. Bu esa ta'lim muassasasining rivojlanish istiqbollarini aniqlash, pedagogik jarayon samaradorligini oshirish hamda ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini ta'minlash imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, ta'lim muassasalarini samarali boshqarish va ta'lim sifatini oshirishda strategik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, R.H. Jo'raev va S. Turg'unovlarning fikriga ko'ra, ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonini takomillashtirish, ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni zamonaviy talablar darajasida amalga oshirish hamda ta'lim samaradorligini oshirish uchun maxsus, funksional, mujassamlashtirilgan va diversifikatsiyalashgan strategiyalarni qo'llash zarur [1]. Ushbu strategiyalar ta'lim muassasasining barcha faoliyat yo'nalishlarini kompleks rivojlantirish, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish hamda professional ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Strategik boshqaruv ta'lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan muhim boshqaruv jarayoni bo'lib, u muassasaning strategik maqsadlariga erishish yo'lida mavjud imkoniyatlar, resurslar va pedagogik jamoaning umumiy manfaatlarini o'zaro uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Strategik boshqaruv ta'lim muassasasining rivojlanish istiqbollarini ilmiy asosda belgilash, ustuvor yo'nalishlarni aniqlash hamda ushbu yo'nalishlar bo'yicha uzoq muddatli dasturlar, reja va loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali boshqaruv jarayonini tizimli tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, strategik boshqaruv ta'lim muassasasida boshqaruv madaniyatining yuqori darajada shakllanishini ta'minlaydi, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli innovatsion dasturlarni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Professional ta'lim tizimida pedagogik strategiyani samarali amalga oshirish uchun uning asosiy yo'nalishlarini aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik strategiyani amalga oshirish jarayonida uchta asosiy strategik yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi yoʻnalish oʻquvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining dasturiy va metodik taʼminotini takomillashtirish orqali ularning professional bilim, koʻnikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu yoʻnalish doirasida oʻquvchilarda mavjud bilim va koʻnikmalar yetishmasligini bartaraf etish, zamonaviy kasbiy faoliyat talablariga mos kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ularning mehnat faoliyatiga tayyorgarlik darajasini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Professional taʼlimni modernizatsiya qilish sharoitida pedagogik strategiyaning ushbu yoʻnalishi oʻquvchilarda raqobatbardoshlikni taʼminlovchi shaxsiy va kasbiy sifatlarni shakllantirish, nazariy bilimlar va amaliy koʻnikmalar oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni taʼminlash hamda oʻquvchilarning zamonaviy mehnat sharoitlariga moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu yoʻnalish yosh mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini oʻzaro uygʻunlashtirish, ularning oʻz kasbiy faoliyatini anglash va samarali amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Ikkinchi yoʻnalish oʻquvchilarning shaxsiy rivojlanishini psixologik va pedagogik jihatdan qoʻllab-quvvatlash hamda ularning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Ushbu yoʻnalish doirasida taʼlim jarayonini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida tashkil etish, oʻquvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va kasbiy qiziqishlarini hisobga olgan holda taʼlim-tarbiya jarayonini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik strategiyaning mazkur yoʻnalishi oʻquvchilarda mustaqil fikrlash, oʻz faoliyatini tahlil qilish, oʻz taʼlim natijalari uchun masʼuliyatni his qilish hamda kasbiy faoliyatga ongli ravishda yondashish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu orqali oʻquvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun qulay pedagogik muhit yaratiladi hamda ularning shaxsiy va kasbiy salohiyatini toʻliq namoyon etish imkoniyati taʼminlanadi.

Uchinchi yoʻnalish professional taʼlim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy rivojlanishi va ularning kasb martabasini shakllantirishga koʻmaklashishga qaratilgan. Ushbu yoʻnalish bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini strategik rejalashtirish, ularning mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini taʼminlash hamda kasbiy faoliyatda barqaror oʻrin egallashiga yordam berishni nazarda tutadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun mehnat bozori talablarini tizimli tahlil qilish, ish beruvchilar bilan samarali hamkorlik aloqalarini yoʻlga qoʻyish hamda taʼlim xizmatlari bozorining imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda professional taʼlim muassasalari va ish beruvchilar oʻrtasida samarali hamkorlik tizimi shakllantiriladi, bu esa bitiruvchilarning ish bilan taʼminlanish darajasini oshirish, ularning kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini taʼminlash hamda professional taʼlim tizimining umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, professional taʼlim tizimini rivojlantirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash jarayonida strategik yondashuv muhim pedagogik va boshqaruv omili hisoblanadi. Strategik boshqaruv professional taʼlim muassasalarining uzoq muddatli rivojlanishini taʼminlash, taʼlim jarayonining samaradorligini oshirish hamda mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beradi.

Professional taʼlim muassasalarida pedagogik strategiyaning ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish taʼlim sifatini oshirish, pedagogik faoliyat samaradorligini taʼminlash hamda boʻlajak mutaxassislarning zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, strategik boshqaruv taʼlim

muassasalarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, professional ta'lim tizimida strategik yondashuvni qo'llash ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish hamda raqobatbardosh, zamonaviy kasbiy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois, professional ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni takomillashtirish, pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish professional ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. - T.: Fan, 2006. - B.119.
2. Kurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshkarish. T.: Turon-Iqbol, 2006. – 542 b.
3. Ergashev B.B. Professional ta'lim tizimida raqobatbardosh bitiruvchilarni shakllantirish strategiyalari // Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. - Toshkent. 2021. № 3. - B.6-8.
4. Ergashev B.B. Professional ta'lim bitiruvchilarining ish beruvchi tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirishning pedagogik asoslari // TDPU ilmiy axborotlari – Toshkent. 2021. № 5. - B. 90-96.
5. Новиков Д.А. Статистические методы в педагогических исследованиях (типовые случаи). - М.: МЗ-Пресс, 2004. - 67 С.
6. Кейнс Д.М. Предмет и метод политической экономии. Монография. Москва.: Директ-Медиа, 2012. – 279 С.
7. Коваленко Н.П. Психология успеха. / Коваленко Н.П. - СПб.: Издательский дом "Нева"; М.: "ОЛМА-ПРЕСС Образование", 2003. - 160 С.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).